

ALISHER NAVOIYNING “SAB’AYI SAYYOR” DOSTONIDAGI YETTINCHI HIKOYA TAHLILI

Fardu Filologiya fakulteti
2-kurs talabalari
Ergasheva Mukarramxon
Sharifjonova Ruxsora

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Sab’ayi sayyor” dostonida yettinchi saroydagi yettinchi g’aribning hikoyasi alohida ahamiyat kasb etib, sayohatchilarning ma’naviy sayohati cho’qqisini, yuksak hikmatga erishganini ifodalaydi. Bu hikoyani tahlil qilish Navoiyning mavzuga oid izlanishlari, ramziyligi va falsafiy teranligi haqida tushuncha beradi.*

Kalit so‘zlar: *sayyor, oq rang, xorazmlik sayyoh, Dilorom, Bahrom, visol, iztirob, hikoyalar, ramzlar, yetti qasr, yetti sayyora, yetti kun*

Annotation: *This article delves into the importance of the story of the seventh stranger in the seventh palace in Alisher Navoi’s epic “Sab’ayi Sayyor”, highlighting its contribution to the spiritual odyssey of the travelers and demonstrating their ascent to profound wisdom. Analyzing this story provides insights into Navoi’s thematic interests, symbolism, and philosophical complexity.*

Keywords: *traveler, bright color, Khorezmian traveler, Dilorom, Bahrom, joy, excitement, stories, symbols, seven castles, seven planet, seven day.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается значимость рассказа о седьмом незнакомце в седьмом замке в эпосе Алишера Навои “Семь Путников”, подчеркивая, как он обогащает духовное путешествие путешественников и иллюстрирует их достижение глубокой мудрости. Анализ этого рассказа раскрывает тематические интересы Навои, его символизм и философскую глубину.*

Ключевые слова: *путешественник, белый цвет, турист из Хорезма, Дилором, Бахром, страдания, рассказы, символы, семь замков, семь планет, семь дней.*

Ma’lumki, “Sab’ayi sayyor”(Yetti sayyora) Alisher Navoiy qalamiga mansub Xamsa asarining to‘tinchi dostonidir. “Sab’ayi sayyor”– ishqiy-sarguzasht ruhida 1484-yilda yozib tugatilgan. Doston 38 bobdan iborat bo‘lib, sharqda keng tarqalgan “Bahrom Go‘r” afsonasi asosida yozilgan. Afsonani yozma adabiyotga dastlab Firdavsiy olib kirgan. So‘ng Nizomiy, Xusrav Dehlaviy va boshqalar shu mavzuda asarlar yozganlar. Navoiy bu tajribalarni umumlashtirib mukammal doston yaratgan Bu dostonning boshqa dostonlardan farqi hikoya ichida hikoya usulida yozilgan. Turkiy tilda birinchi bo‘lib bu mavzuni Alisher Navoiy qalamga oladi va o‘z dostonini “Sab’ayi sayyor” deb ataydi. Doston muqaddimasi an’anaviy hamd bilan berilgan.. Dostondagi asosiy voqealar 12-bobdan boshlanadi.

Asarning bosh qahramoni Bahrom bo‘lib, tarixiy shaxs sifatida Eronning Sosoniy hukmdori Varaxran V bilan bog‘liq. Sharq mamlakatlarida Mars (Mirrix) yulduzi Bahrom

deb atalib, jang-u jadallar homiysi sifatida keladi. Bahrom timsoli dastlab forsiy adabiyotda Abulqosim Firdavsiy “Shohnoma”sida tasvirlangan.

Dostonda hikoyalar berilishining asosiy sababi ishq yo’lida yor vasliga intizor Bahrom bilan bevosita bog’liq. Bizningcha, Navoiy bosh qahramonning lirik kechinmalari hamda ruhiy holatini yetti iqlim, yetti qasr va yetti malika orqali ko’rsatib bergan. Sakkizinchi bobda Navoiy doston yaratilishidan oldin tush ko’rganini, tushida yetti gumbaz, yetti gumbaz ichida yetti xil rangdagi mutasaddiyini ko’rganini, shu yerda yetti kun yurib, yetti afsona tinglaganini, bir mo’ysafid undan avvalgi dostonlardagi qusurlarni tuzatishni so’rganini, uyqudan uyg’ongach, muabbir aytgan dalillardan so’ng doston yozishga kirishganini aytadi.

Yettinchi saroy koinotning uyg’un tartibini va ilohiy haqiqatning abadiy tabiatini aks ettiruvchi transcendent go’zallik va osoyishtalik olami sifatida tasvirlanishi mumkin. Uning arxitekturasi va tevarak-atrofi samoviy olamlar yoki jannat manaralari tasvirini uyg’otish mumkin, bu inson ruhining eng yuksak intilishlari va ma’naviy kamolotga erishish ramzidir.

Dostondagi ilk hikoya shanba kundan boshlanadi. Bu kunning homiysi Zuhul (Saturn) sayyorasining rangiga mos qora qasrdir.

Yakshanba kunining homiysi Quyosh sayyorsining rangiga mos sariq qasr.

Dushanba kunining homiysi Oy sayyorasining rangiga mos yashil qasr.

Seshanba kunining homiysi Mirrix(Mars) sayyorasining rangiga mos qizil qasr.

Chorshanba kunining homiysi Utorud(Merkuriy) sayyorasining rangiga mos moviy qasr.

Payshanba kunining homiysi Mushtariy(Yupiter) sayyorasining rangiga mos sandal qasr.

Juma kunining homiysi Zuhra (Venera) sayyorasining rangiga mos oq qasr.

Ko’rib turganingizdek har bir qasr o’zining homiysi va o’ziga xos ranglar orqali tasvirlangan. E’tibor tortadigan yana bir jihati shundaki, hikoyalar shanba kunida boshlanib, juma kunida nihoyasiga yetadi. Ko’rib o’tganimizdek, shanba kunining homiysi qora rangda va juma kunining homiysi esa oq rangda tasvirlanmoqda. Bu holatni bevosita chirkinlikdan yorug’likka qadar bir vasila deya ta’rif berishimiz mumkin. Ya’ni aysh-u ishratga mukkasidan ketgan shoh Bahrom o’zining mahvash parisi bo’lmish Diloromni aynan juma kunida tinglagan hikoyasi orqali topadi. Muborak Juma kunida Bahrom oppoq – kofuriy kiyimda oq qasr ichida fil suyagidan yasalgan taxt ustida o’tirib, oq kiyimli go’zal bilan billur jomda oq may ichadi va Chin go’zali qoshida Xorazmlik musofirning hikoyasini tinglaydi. Musofir o’zining xorazmdan ekanligini, soz chalishini, iqlimdagi barcha ustozlar uning shogirdlari ekanligini, kutilmaganda bir chinlik savdogarning go’zal kanizak huzuriga borib arz qilganini, uning sozini tinglab, tarixi bilan qiziqqanini va kanizak unga boshidan o’tganlarini so’zlab berganini aytadi. Shoh Bahrom aytilganlardan bu kanizak Dilorom ekanligini bilib, Diloromni olib kelish maqsadida Xorazmga sipohlarini jo’natadi. Garchi hikoyaning oxirida Diloromni vasliga yetishsada, yana ovga, aysh-ishratga beriladi. Bir kuni u saroy ahli, sonsiz qo’shin va Dilorom bilan katta ova chiqqanida, yomg’ir yog’adi va eski botqoqning og’zi ochilib Bahromni Dilorom va butun arkoni davlati bilan birga yer yutadi. Bahrom bo’lib o’tgan voqealardan va tinglagan hikoyalaridan xulosa chiqarmaydi: oshiqlik va shohlikni bir

qiyofada olib bermoqchi bo'ladi, aslida esa chin oshiqlik toj-u taxt va boylik bilan muvofiq kelmaydi:

Ishq ila shohlig' muvofiq emas,

Ishq lofida shoh sodiq emas.

Boshqa sayohatchilar bilan muloqot va muloqot orqali yettinchi musofir johillik va illyuziya zulmatida ma'rifat mayoqchasi bo'lib xizmat qilib, abadiy donolik va yo'l-yo'riq beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning "Sab'ayi sayyor" asaridagi yettinchi saroydagi yettinchi g'ariblik qissasi tahlili ma'naviy-ma'rifiy, metafizik haqiqat, ongning transtsendent tabiati bilan bog'liq mavzularning chuqur izlanishlarini ochib beradi. Navoiy allegorik hikoyatlar va falsafiy nutqlar orqali o'quvchilarni o'z-o'zini kashf qilish va ichki o'zgarishlar safariga chorlaydi, madaniy va zamon chegaralaridan oshib ketadigan so'nggi donishmandlik va ma'rifatning abadiy izlanishlarini aks ettiradi.

Shoir Bahrom timsoli munosabati bilan o'z davridgi ba'zi dolzarb masalalarga ham ishora qilib o'tgan. Xususan, haqiqiy hukmdor har qanday illatlardan xoli bo'lishi zarurligi, xalq ahvolidan g'ofillik va aysh-ishratga berilishi oxir-oqibat shohni va mamlakatni tanazzulga olib borishi mumkinligi shoir aytmqchi bo'lgan muhim g'oyalardan biridir. Shu ma'noda Bahromning tabiatga yetkazgan jabr-zulmi uning halokatiga sabab bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy. Sab'ayi sayyor. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. – T.:Fan,1992. 10-jild.
2. Alisher Navoiy. Sab'ayi sayyor. – T: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2006.
3. Yusupova D. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mazmun v ritmning badiiy uyg'unligi. - T: Adabiyot va san'at, 1979
4. Xasanov S. Navoiyning yetti tuhfası. T: Adabiyot va san'at, 1991
5. O.Madayev. navoiy suhbatlari. "O'qituvchi". -T.2018.B-194
6. K.imomov O'zbek xalq poetikasi. "Fan". – T.2008.